

## OTA-ONA VA FARZAND ORASIDAGI MUNOSABATLARDA IJTIMOIY OMILLARNING AHAMIYATI

Safarova Dilnoza Kuchkarovna

UMFT “Gumanitar fanlar”

kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqola ota-onsa va farzand orasidagi munosabatlarda ijtimoiy omillarning ahamiyati mavzusida bo‘lib, unda oiladagi o‘zaro munosabatlar, yechimlar va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalovchi maskan oila ekanligi haqida fikrlar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** farzand, ota-onsa, oila, munosabat, qadriyat.

**Аннотация:** В статье речь идет о значении социальных факторов во взаимоотношениях родителей и детей, в нем содержатся мысли о том, что семья – это дом, воспитывающий в духе взаимоотношений, решений и общечеловеческих ценностей.

**Ключевые слова:** ребенок, родитель, семья, отношения, ценности

**Abstract:** The article is about the importance of social factors in the relationship between parents and children, it contains thoughts that the family is the home that educates in the spirit of mutual relations, solutions and universal human values.

**Key words:** child, parent, family, relationship, value.

Mamlakatimizda jismoniy sog‘lom, ma’naviy yetuk, har tomonlama uyg‘un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish mas’uliyati, eng avvalo, oila zimmasidadir. Ma’naviy-ruhiy sog‘lom bolaning dunyoga kelishi masalasiga sog‘lom va ahil oila mehnatining samarasi sifatida qarab, oilada o‘zaro hurmat va mehr-muhabbat, yuksak axloqiy va ma’naviy qadriyatlar muhitini shakllantirish bugungi kunda har birimizning vazifamiz hisoblanadi. Bu vazifani bajarishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rnini judayam katta. Oila murg‘ak vujud qalbiga eng pokiza tuyg‘ularning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoga kelgan farzand aynan oila bag‘rida bir qator dastlabki hayotiy ko‘nikmalarini egallaydi. Darhaqiqat, qadimdan milliy urf-odat va an‘analarimizni yosh avlod ongiga singdirishda, ularni jismonan barkamol, ma’nan yetuk, mehr-oqibatli, saxovatpesha, o‘zgalar dardini his qila oluvchi, yiqilganga tirkak bo‘la oladigan insonlar qilib tarbiyalashda sog‘lom oila muhiti muhim o‘rin kasb etadi. Bir so‘z bilan aytganda, oila azal azaldan farzandlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalovchi maskan bo‘lib kelgan.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, barqaror oila aholi turmush farovonligining oshishi, xususan, iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy ajrimlar esa, aksincha, farzandlar tarbiyasi, oila a'zolari hayoti sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, keskin ijtimoiy ziddiyatlar va xavf-xatarlarga sabab bo'ladi. Ota-onalik oliy baxt va shu bilan birga ulkan mas'uliyat hamdir. **Farzandni aziz ne'mat sifatida qabul qilib, unga chiroqli tarbiya berish o'ziga yarasha bilim va qunt talab qiladi.** Otalar onalarni yoki onalar otalarni eshita olishsin, bir-birini kerakli paytda qo'llab-quvvatlay olishsin, farzandga eshittirmasdan bola tarbiyasi haqida alohida maslahat qilib, bahs-munozara qilishsin. Bolada tarafkashlikni uyg'otmaslik uchun ikkisi bir to'xtamga kela olishi kerak. Chunki bola biror ishni qilayotganda agar bu ishni qilsam, dadam qarshi tursayam, onam tarafimni oladi, degan tushuncha bilan ulg'ayadi yoki teskarisi bo'lishi ham mumkin. Shu sababli ota-onaning fikri bir nuqtaga kelib, hamfikr bo'la olishi kerak.

Ota-onaning hamfikrliji – juda katta yutuq. Ba'zida yaqin dugonalarimga farzand tarbiyasida ma'lum usulni qo'llab ko'rishni, foydali to'garaklarga qo'yishni tavsiya qilaman. Shunda: "Yo'q, bunga turmush o'rtog'im ruxsat bermaydi", degan javob olaman. Bo'ldi, shu bilan oldinga yo'l yo'q. Gap ruxsat berish yoki ta'qiqda emas, muhimi – ma'lum fikrni o'zaro hamjihat bo'lib bir-biriga uqtira olishda, deb o'layman. Agar ona otaga bo'ysunmasa yoki ota kerak paytda onani qo'llab-quvvatlamasa, u yerda hech qanday tarbiya usuli foyda bermaydi. Ota-onaning hamjihatligi dunyoqarashning yaqinroq bo'lismidir, aslida. Hayotga munosabati yaqinroq bo'lgan insonlar bitta fikrga kelishi osonroq bo'ladi. Buvi-buvalar bilan birga yashaydigan katta oilalarda odatda bola kim uning tarafini olsa, o'shandan panoh izlaydi va aytganini qildirishga harakat qiladi. Shuning uchun ham bir uyda yashovchi buvibuvalar, ota-onsa farzand tarbiyasida yakdil fikrga kela olishlari kerak. Ana shunda tarbiyaning ildizi mustahkam bo'ladi. Ota-onsa bir-birini tushunmasa, buni farzandlariga yetkazishi qiyin bo'ladi. Ota bir fikrni aytса-yu, ona uni ma'qullamasa yoki onaning gapini ota qo'llab-quvvatlamasa, bu, albatta, farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Aytaylik, ota farzandning tadbirkor bo'lismini xohlaydi, ona esa qarshi bunga. Farzand kimga yon bosishini bilmay ikkilanadi, ya'ni tarafkashlik paydo bo'lishi mumkin. Farzand o'laydi: otam tarafimni olyapti, shuning uchun tadbirkor bo'laman. Balki onasi to'g'riroq yo'lni aytayotgan bo'lishi mumkin, lekin fikrlar qarama-qarshiligi bolada ikkilanishni keltirib chiqarishi va oxir-oqibat noto'g'ri yo'lni tanlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Har bir oilada past-balandliklar bo'ladi. Ularni yengib o'tishda bir-birini tushunish juda muhim. Farzand tarbiyasida ham o'zaro tushunish, fikrini hurmat qilish ahamiyati katta. Ko'p oilalarda ota oilani boqish uchun asosiy vaqtini ko'chada o'tkazadi, shu sababli ko'p vaqt ajratolmaydi. Shunday bo'lsa ham ota rafiqasini kerak paytda qo'llab-quvvatlay olishi, yordam berishi kerak. Farzand tarbiyasida hammasini onaga yuklab qo'yish to'g'rimas. Chunki farzandlar onadan, otadan tarbiyani turlicha qabul qilishadi. Ota-onaning tarbiyada alohida o'rni bor.

Ota-onalardan farzand o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning (ijtimoiylashuvning) shaxs xususiyatlari shakllanishiga ta'siri to'g'risida psixodinamik qarashlar ham mavjud. Masalan, R.Roxner tadqiqotlarida quyidagilar isboti berilgan: bolalarga iliq munosabatda bo'ladigan, ularni ko'p quchib, erkalaydigan, ularni barcha ishlarida qo'llab-quvvatlaydigan ota-onalarda olamga pozitiv qarashi mavjud, optimist-bolalar bo'lar ekan. Sovuq, bolalarini inkor etuvchi (jismoniy jazolarni, verbal haqoratlarni ko'p ishlatadigan) ota-onalar o'zini sevmaydigan, emotsiyonal so'qir, beqaror, agressiv, muhitga yomon moslashuvchan, olamga negativ qaraydigan, pessimist bolalarni tarbiyalashar ekan. Ota-onalardagi beqarorlikning oqibatlarini tasavvur qilsalarda, uning oldini olishni bilmaydi. Ko'pincha bu – bolalikka xos sifatlar ekanligi haqidagi fikr ularni tinchlantiradi. Aksariyat ota-onalar bolasini yo'qotib qo'yish yoki uning ko'ngli qolishidan qo'rqib ham noto'g'ri tarbiya yo'llarini tutadi. Shuning uchun oilaviy tarbiya o'ta murakkab jarayon bo'lib, unda ota-onalar oldindan psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

### **Bolangizning kelajagini o'ylasangiz, uni urmang.**

- Hayotga tayyorlamoqchi bo'lib, ota-onalar jismoniy kuch ishlatib, qattiqko'llik qilib qo'yishadi. Tarbiya bo'yicha kitoblarni o'qib chiqqanimda, hech qaysi manbada bolani urib tarbiyalash oqlanmagan. Ko'pchilik ota-onalar bolani urib tarbiyalashadi, chunki bu yo'l orqali bolani bo'ysundirish oson. Bolaning ojizligidan foydalanishadi. Bola sizga qarshi so'z bilan javob qaytarolmaydi, qarshi kurasholmaydi. Urib jazolash bolani sindiradi. O'sayotgan daraxtni to'g'rileyman deb, sindirib qo'ya qolishadi. Bolani bitta uradi, yig'laydi, lekin ota-onalardan aytganini qiladi. Vaholanki, uning kelajagini o'ylashmaydi, uning ichki kechinmalarini his qilib ko'rishmaydi. Bola ham xato qiladi, xato qilish insonga xos. Bolani urish u yoqda tursin, qo'pol gap bilan tarbiyalashning o'zini qoralayman. Bolaning xatosini aytish kerak, faqat uning ma'lum usullari bor. Buning uchun katta sabr kerak.

### **BAXTLI OILA QOIDALARI**

#### ***Oila - tabiatning shoh asaridir***

#### ***Santayana***

Nima sababdan biz ko'proq oila va unda yuz beradigan munosabatlarga e'tiborli bo'lamiz, nima sababdan oila maskanida o'zimizni yaxshi, baxtli his etsak, ishimiz ham yurishgandek, omadimiz chogandek bo'ladi? Chunki oila bizning hayotimizdagagi eng aziz va yaqin dargoh? Faqat oilagina insonga baxtli bo'la olishi, o'zini kimlargadir kerakli his eta olishi yoki bo'limasa o'zini ezilgan, omadsiz sezishiga sabab bo'la oladi. Shuning uchun o'z davrida yashagan ko'p mutafakkirlar baxtli oila qurishning shartlari va retseptlarini yozib ketganlar, chunki oila kurish va kishilarning juftlik asosida yashash ehtiyojlari har bir zamonda ham bu hayotiy zaruratdir.

### ***Seving va boshqaga ham yashashga imkon bering!***

Hayotda shunday xolatlar bo'ladiki, er-xotin munosabatlarda e'tibor, g'amxo'rlik va xushmuomalalik sevgi, muhabbatga nisbatan ham o'z ustunligini ko'proq ko'rsatadi. Ayrim xollarda oilalar sevgi-muhabbat emas, balki sovchilik yoki boshqa sabablarga ko'ra tashkil topgan bo'lsa, birgalikdagi oilaviy hayot va ayniqsa, er-

xotinning bir-biriga ko'rsatadigan e'tibori oilaviy baxtni chinakam his etishga asos bo'ladi.

### OILA MUSTAHKAMILIGI UCHUN PSIXOLOGIK MASLAHATLAR

Kelishmovchiliklarning mazmuni va kelib chiqish sabablari qanday bo'lishidan qati nazar, psixologlarning quyidagi maslahatlarini bilish har bir er-xotin uchun g'oyat zarurdir:

- jahnga jahngi bilan javob bermaslik kerak. Imkoni boricha munozarani bir damga kechiktirish, buning iloji bo'lmasa, munozarani ko'chaga, bog' yoki hiyobonlarga ko'chirish lozim. Negaki tabiat quchogida asab sistemasi osonlik bilan osoyishta holatga keladi;

- kelishmovchilikka daxlsiz narsalarni, shuningdek, o'tmishni eslamasdan faqat kelishmovchilikka sabab bo'lgan voqeasi ustida gapirish lozim;

- munozarada ovozni ko'tarmasdan, ehtiroslarni jilovlash zarur Munozara va janjal sodir bo'lganida oilada kim yetakchi, xarakterliroq, irodali, mulohazaliroq bo'lsa, o'sha birinchi bo'lib murosaga qo'l uzatadi. Oiladagi ruhiy iqlimning sog'lom bo'lishi uchun esa, oila yetakchisi javobgardir.

Xulosa qilib aytganda, oilalarda sog'lom ma'naviy, axloqiy muhit hukmoni ekan – jamiyat mustahkam bo'ladi, mustahkam jamiyatda esa tinchlik, farovonlik, osoyishtalik va to'kinlikning barqarorligi ta'minlanadi. Jamiyatimizning osoyishtaligi va barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shish esa har bir vatandoshimizning vazifasidir.

### FOYDALANILGAN ASOSIY ADABIYOTLAR HAMDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI RO'YXATI:

1. F. Akramova, R.Abdullayeva. Oila psixologiyasi: psixologik tavsiyalar va testlar, risola, Toshkent – 2011
2. Yuldashev M. Oiladagi ruhiy muhit va uning tarbiyaga ta'siri. Toshkent, 2004
3. Андреева Т.В. Семейная психология. – СПб.: Речь, 2004
4. Karimova V. Oila psixologiyasi: Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: 2008
5. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования: Учебное пособие. М.: Гардарики, 2005